

BOLANING PSIXIK RIVOJLANISHI, XULQ- ATVOR QOIDALARI. BIXEVORIZM.

Andijon davlat pedagogika instituti vb dotsenti

O'g'ilxon Tolibjonovna Vaxabova

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

Jo'rayeva Zuhra Xusanboy qizi

ANNOTASIYA: Biz ushbu maqolada bolaning psixik rivojlanishi haqida ma'lumot beramiz. Asosan, bolalarda xulq- atvor qoidalari o'rganiladi. Bundan tashqari bixeviorizm tushunchasining bir qancha asosiy g'oya va vazifalari haqida ham ma'lumotlarni ham o'rganamiz.

KALIT SO'ZLAR: Psixik rivojlanish, kognitiv rivojlanish, emotsional, ijtimoiy, nutqiy, axloqiy rivojlanish, sensor- motor, preoperatsion, konkret operatsion, formal operatsion, bixeviorizm.

Bolaning psixik rivojlanishi – bu bola tug'ilgandan boshlab bosqichma- bosqich o'zgarib boradigan aqliy, emotsional, ijtimoiy va axloqiy jarayonlarning shakllanishi va rivojlanishidir. Bu rivojlanish bolaning atrof muhit bilan o'zaro ta'siri, tajribasi, genetik omillar va tarbiya ta'sirida yuz beradi. Odatda odamning rivojlanishi tug'ilmasdan ilgari, ya'ni ona qornidagi davridan boshlab juda tez va murakkab taraqqiyot davrini boshdan kechiradi. Homiladorlik davrida vitamanga boy mahsulotlardan iste'mol qilsa bolaning rivojlanishiga yaxshi natija beradi. Psixolog olim D.B. Elkonin bolaning rivojlanishi haqida shunday deydi: “ Bola jamiyat a'zosi va shaxs sifatida shakllanib borar ekan, uning psixikasi rivojlanib, olamni aks ettirish qobiliyati go'daklikdan yetuklik davrigacha murakkablashib va takomillashib boradi. Ushbu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini, qonuniyatlarini bolalar psixologiyasi tadqiq etadi”.

ABSTRACT: In this article, we provide information about the psychological development of children. Mainly, behavioral rules in children are explored. In addition, we also study several main ideas and functions of the concept of behaviorism.

KEYWORDS: Psychological development, cognitive development, emotional, social, speech, moral development, sensorimotor, preoperational, concrete operational, formal operational, behaviorism.

АННОТАЦИЯ: В данной статье мы представляем информацию о психическом развитии ребенка. В основном рассматриваются правила поведения у детей. Кроме того, изучаются основные идеи и функции концепции бихевиоризма.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Психическое развитие, когнитивное развитие, эмоциональное, социальное, речевое, моральное развитие, сенсомоторный, дооперационный, конкретно-операциональный, формально-операциональный, бихевиоризм.

Quyida bolaning psixik rivojlanishining asosiy jihatlari, boshqichlari keltirilgan.

1. Aqliy rivojlanish.

Dastlab sensor motor (hissiy- harakat) bosqichida boshlanadi. (0- 2 yosh)

Keyinchalik fikrlash, xotira, e'tibor, tasavvur qilish kabi aqliy jarayonlar rivojlanadi. (Preoperatsion bosqich 2-7 yosh)

Piagenning nazariyasiga ko'ra, bolada fikrlash qobiliyatini rivojlanishi ko'riladi. (Konkret operatsion bosqich 7- 11 yosh)

Abstrakt fikrlash va gipotezalarni sinab ko'rish qobiliyati rivojlanadi. (Formal operatsion bosqich. 12 yoshdan boshlab) .

2. Emotsional rivojlanish.

Tug'ilgan paytdan boshlab bola his qilish va ifoda qilishga qodir. (Masalan, yig'lash)

Vaqt o'tishi bilan quvonch, g'azab, qo'rquv kabi hissiyotlarni tushunish va boshqarishni o'rganadi.

Onasi bilan iliq munosabat muhim rol o'ynaydi.

3. Ijtimoiy rivojlanish.

Dastlab bila faqat yaqin insonlari (ota ona) bilan aloqada bo'ladi.

So'ngra, boshqa bolalar bilan o'ynashni o'rganadi, jamoada harakat qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

4. Nutq rivojlanishi

Psixik rivojlanish nutq bilan chambarchas bog'liqdir.

Nutq orqali bola o'z fikrini ifoda etadi, boshqalarni tushunadi va bilim oladi.

Nutqning rivojlanishi orqali fikrlash ham rivojlanadi.

5. Axloqiy rivojlanish.

O'z xatti – harakatlari uchun mas'uliyat his qilishi shakllanadi.

Empatiya, hamdardlik, boshqaning holatini tushunish rivojlanadi.

Lawrence Kohlbergning axloqiy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bolalar axloqiy qarorlar qabul qilishda 3 bosqichdan o'tadilar :

1. Prekonvensional bosqich: jazo yoki mukofot asosida qarorlar qabul qilish

2. Konvensional bosqich: jamiyat qoidalari va boshqalarning fikrlariga asoslanish.

3. Postkonvensional bosqich: abstrakt axloqiy prinsiplarga asoslangan qarorlar qabul qilish.

Bola uchun xulq- atvor qoidalari muhim tarbiyaviy me'zondir. Bu qoidalar bilan jamiyatda to'g'ri tutishni, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, o'zini tuta bilishni ta'minlaydi. Tarbiya – ko'p qirrali, uzoq davom etadigan jarayondir. Bolani o'rab olgan muhitning hammasi odamlar, narsalar, hodisalar uning ongida, xulq-atvorida ma'lum iz qoldirdi, uni o'zgartiradi va o'stiradi. Ota onalik burchi mana shu o'sishni ziyraklik bilan boshqarib berishlikdir.

Asosiy xulq- atvor qoidalari:

- Kattalarga hurmat ko'rsatish
- Yolg'on gapirmaslik
- Tinch muhitda muloqot qilish
- Sabrli bo'lish, navbat kutish
- Yordam so'rash va yordam berish.

Bu qoidalar ota ona va o'qituvchi tomonidan muntazam tushuntirilishi va doimiy nazorat qilinishi lozim.

Bixeviorizm – bu psixologiyada inson va hayvonlarning xulqi- atvorini kuzatish va o'rganish orqali tushiniladigan yo'nalish. U yigirmanchi asr boshlarida paydo bo'lgan va asoschilari J.B. Watson, B.F. Skinner va Ivan Pavlov kabi olimlardir.

Asosiy g'oyalari:

- Ichki ruhiy holatlar emas, balki faqat tashqi kuzatiladigan xatti-harakatlar muhim.
- O'rganish tajriba va ta'sir asosida shakllanadi.
- Mukofot va jazo – asosiy ta'sir vositalaridir.

Bixeviorizmدا tarbiya quyidagicha kuzatiladi: to'g'ri xatti-harakat mukofotlanadi, xato xatti-harakat jazolanadi. Masalan, bola o'yinchoqlarni yig'a olsa unga maqto'v beriladi, aksi bo'lsa ogohlantirish beriladi.

Xulosa qilib aytganda, bolaning psixik rivojlanishi murakkab va bosqichli jarayon bo'lib, har bir yosh davrda o'ziga xos xususiyatlarda namoyon bo'ladi. Bu rivojlanishga sog'lom oilaviy muhit, sifatli ta'lim, mehr va e'tibor muhim ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonova Z va Alimova G. “Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi”: M; Toshkent– 2006 yil 4- bet
2. Jean Piagenning “Kognitiv rivojlanish “ nazariyasi
3. Lawrence Kohlbergning “ Axloq nazariyasi”
4. B.Umarov. Psixologiya. “ Voris nashriyoti”. Toshkent. 2012. 255- bet.